

**ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ИХТИСОСЛАШГАН  
КЛАСТЕРЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ:  
ТАЖРИБАЛАР, НАТИЖАЛАР ВА  
ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВЛАР  
РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ  
МАТЕРИАЛЛАР ТЎПЛАМ**

**2020 ЙИЛ 9 НОЯБРЬ**



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**



**“ИҚТИСОДИЁТ” КАФЕДРАСИ**

**ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ИХТИСОСЛАШГАН  
КЛАСТЕРЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ: ТАЖРИБАЛАР,  
НАТИЖАЛАР ВА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВЛАР  
Республика илмий-амалий анжумани**

**МАТЕРИАЛЛАР ТЎПЛАМИ**

**Бухоро  
«Дурдона» нашриёти  
2020 й**

**Қишлоқ хўжалигида ихтисослашган кластерларни шакллантириш: тажрибалар, натижалар ва инновацион ёндашувлар.** Республика илмий-амалий анжумани материаллари. 2020 йил 9 ноябрь: - Бухоро : “Sadridin Salim Buxoriy” Durdona нашриёти, 2020.-240 б.

**Дастурий кўмита:** и.ф.д.профессор О.Х. Хамидов, PhD, доц О.С. Қахҳоров, и.ф.д. профессор Б.Н. Наврўз-Зода, и.ф.д. Т.Х. Фармонов, и.ф.н., доц. М.А. Орипов, и.ф.н., доц., А.Т. Жўраев, и.ф.н., доц., С.У. Таджиева, и.ф.н., доц., Д.Ш. Явмутов, и.ф.н. доц., Х.И. Мўминов, и.ф.н. доц., М.М. Тоирова, и.ф.ф.д. А.Ж. Абдуллоев.

**Ташкилий кўмита:** PhD, доц О.С. Қахҳоров, и.ф.д. профессор Б.Н. Наврўз-Зода, и.ф.н., доц., А.Т. Жўраев, и.ф.ф.д. А.Ж. Абдуллоев, и.ф.ф.д. З.С. Нуров, катта ўқитувчи: С.С. Давлатов, ўқитувчи А.Д. Қудратов

“Қишлоқ хўжалигида ихтисослашган кластерларни шакллантириш: тажрибалар, натижалар ва инновацион ёндашувлар” мавзусидаги Республика илмий-амалий анжумани тўпламига етакчи олимлар, профессор-ўқитувчилар, катта илмий ходим-изланувчилар, мустақил изланувчилар илмий тадқиқот ишлари доирасида илмий мақолалари ва маъруза тезислари киритилган. Мазкур анжуман қишлоқ хўжалигида кластерни ривожлантиришнинг устувор йўналишларини аниқлаш, Кластерлар фаолиятини ташкил қилиш ва ривожлантиришнинг ҳуқуқий – меъёрий асосларини такомиллаштириш, Кластер тизимида фермер хўжалиklarини самарали ва барқарор фаолият кўрсатишини таъминлаш йўллари аниқлаш мақсадида Бухоро давлат университетининг Иқтисодиёт ва туризм факультети “Иқтисодиёт” кафедрасида Давлат илмий-техник дастурлари доирасида бажарилаётган ОТ-Ф1-04(08) -рақамли “Кооперация ва интеграция муносабатлари асосида фермер хўжалиklarида рақобатбардош маҳсулотлар етиштиришнинг мақбул моделларини ишлаб чиқиш” амалий тадқиқотлар лойиҳаси доирасида ташкил этилиб, анжуман материаллари тўпланиб нашр этилган.

Тўплам и.ф.д., профессор Б.Н. Нарўз-Зода умумий таҳрири остида чоп этилди.

Тўплам Бухоро давлат университети илмий-техникавий кенгаши томонидан чоп этишга тавсия этилган.

Такризчилар:

1. Азимов Б – Бухоро муҳандислик технология институти доценти, и.ф.н.
2. Хўжақулов Х.Д. – Тошкент молия институти профессори, и.ф.д.

Мазкур тўпламга киритилган илмий ишлар ва ғоялар мазмуни, ундаги статистик маълумотлар, саналарнинг аниқлигига ҳамда танқидий фикр-мулоҳазаларга муаллифларнинг шахсан ўзлари масъулдирлар.

объектлари ва субъектларининг рақобатбардошлигини оширишдан иборат туристик кластер фаолиятининг умумий мақсади мавжудлиги.

Мамлакатимизда агротуристик кластерларни ташкил қилишдан асосий мақсад – синергетик самарадорлик орқали ҳудудни қишлоқ хўжалигида туристик хизматлар рақобатбардошлигини ошириш яъни туристик кластерлар таркибига кирувчи корхона ва ташкилотлар фаолияти самарадорлигини ошириш; инновацияларни рағбатлантириш; янги йўналишларни ривожлантиришни рағбатлантиришдан иборат.

Туристик кластерлар шакллантирилиши аслида ҳудудни жойлашувни аниқлайди ва минтақанинг имиджини шакллантиришга таъсир қилади.

Агротуризм кластерларини шакллантириш қўйидаги макроиқтисодий кўрсаткичларга билвосита таъсир кўрсатади: минтақага инвестициялар жалб қилиш; маҳаллий бюджетларни тўлдириш; минтақадаги аҳоли бандлигини ошириши мумкин.

## **AGROTURIZM QISHLOQ JOYLARIDA IJTIMOY-IQTISODIY INFRAUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI.**

**Buxoro Davlat universiteti  
“Iqtisodiyot” kafedrası o‘qituvchisi  
Xodjayev Anvar Rasulovich**

Jahon xo‘jaligi tarkibida jadal sur‘atlarda rivojlanib borayotgan sohalardan biri turizm hisoblanadi. Turizm ko‘pchilik mamlakatlarning iqtisodiyotida muhim o‘rin egallaydi. Uning hissasiga jahon yalpi ichki mahsulotining 10 foizi, jahon iste‘mol sarfining 11 foizi to‘g‘ri keladi. Mamlakatimizda eng qadimiy sivilizatsiya va madaniyatlar vujudga kelgan va rivojlangan noyob mamlakat sifatida O‘zbekiston ulkan sayyohlik salohiyatiga ega, bu dunyoning eng yaxshi dam olish va sayohat qilish joylari jozibadorligi bilan ajralib turadi. Milliy madaniyat, san‘at va hunarmandchilikning ko‘p asrlik an‘analari O‘zbekistonda puxta saqlanib kelinmoqda. Dunyoda keng tanilgan milliy taomlar va oshpazlik an‘analari sharqona mehmondo‘stlikning ramzi hisoblanadi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda turizm sanoatining jadal rivojlanishi kuzatilmoqda. 2019 yil oxirida O‘zbekistonga 6 748 500 turist tashrif buyurgan bo‘lsa, 2018 yilda bu ko‘rsatkich 5 346 200 kishini tashkil qildi. Samarqand, Buxoro va Xiva kabi dunyoga mashhur turistlik markazlar har yili dunyoning turli burchaklaridan O‘zbekistonga kelgan minglab xorijiy sayyohlarni jalb qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida keltirilgan takliflarni amalga oshirish maqsadida, shuningdek, Respublikamizni 2017-2021-yillar uchun rivojlanishning besh ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq 2019-

2025-yillarda Turizmni rivojlantirish konsepsiyasi va chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan.

Mamlakatimizda turizm sohasida endi rivojlanib keliyatgan yo'nalish bu agroturizm hisoblanadi. So'nggi paytlarda agriturizm ham jadal rivojlanmoqda, bu yerda sayyohlar shovqinli shaharlardan qochib, mahalliy aholi hayoti va urf-odatlar bilan tanishish, qishloq uylarida yashash va mahalliy sport musobaqalarida qatnashish imkoniyatiga ega. Misol uchun Evropada agriturizm yaxshi rivojlangan qishloq uylari va fermer xo'jaliklarida sayyohlarni joylashtirishdan tashqari, rekonstruksiya qilingan qadimiy qal'alar, monastirlar va tegirmonlarda yashash imkoniyati mavjud, bu erda mehmonlar antik davr bilan katta aloqada bo'lishadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasida agroturizmni rivojlantirish bo'yicha maqsadli ish olib bormoqda. Ushbu turdagi turizmni rivojlantirishning asosiy maqsadi qishloqning ijtimoiy-iqtisodiy holatini mustahkamlash, xususan, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining shaharlarga ketishini kamaytirish, madaniy va intellektual saviyasini oshirish, shuningdek, ushbu turni rivojlantirish milliy hunarmandchilikni rivojlantirishga turtki bo'ladi.

Qishloq joylarida ijtimoiy infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha agroturizmni rivojlantirish orqali qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilishga, qishloq aholisi bandligini va daromadlarini oshirish, kichik biznes rivojlantirish va qishloqdagi hayot sifatini yaxshilashda o'rin egallaydi.

Mamlakatimizda agroturizmni rivojlantirish bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda bunga misol qilib Toshkent viloyatining Parkent tumani Kumushkon MFY hududida O'zbekistonda birinchi "Turizm qishlog'i"ni tashkil etishga doir loyihaga start berilishi agroturizmni jadal rivojlanishiga turtki bo'ladi. Loyihaga ko'ra, mazkur hududda 50 ta mehmon uyi, 20 ta xonadon negizida etnoqishloq, 20 ta xonadonni o'z ichiga oluvchi milliy taomlar qishlog'i, 15 ta xonadonni qamrab olgan hunarmandlar qishlog'i, 10 ta xonadon jalb qilingan san'atkorlar qishlog'i va 20 ta xonadonda agroturizm qishlog'ini yaratish ko'zda tutilgan. Shuningdek, bu erda mehmonxona, xalq kutubxonasi, yoshlar ijodiyot markazi, xalq o'yinlari va sport namoyishlari maydonchasi, o'tovlar shaharchasi, turizm axborot markazlari, suvenirlar va hunarmandchilik mahsulotlari do'koni, zamonaviy sanitar-gigiyenik shoxobchalar, sayyohlar uchun tibbiy xizmat ko'rsatish shoxobchasi, sun'iy sharsharalar hamda 7 ta mavsumiy dam olish maskanlarini tashkil qilish va boshqa tadbirlar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

Bu loyiha natijasida viloyatda 450 nafar fuqaroning bandligi ta'minlanadi, sayyohlar soni yiliga 250 ming (xorijiy sayyohlar 60 ming) nafarga, turizm xizmatlari hajmi esa 50 milliard so'mga yetkaziladi hamda byudjetga soliq to'lovlari qo'shimcha yiliga 3 milliard so'mdan to'lanishi ko'zda tutilgan.

Mamlakatimizda agroturizmni yanada rivojlantirish bo'yicha quyidagi echilishi kerak bo'lgan muammolar mavjud:

- agroturizm sohasida biznesni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlovchi maxsus dasturlarning etishmasligi;
- kadrlar muammosi - agroturizm sohasidagi mutaxassislarning etishmasligi, shu jumladan tashqi turizm yoki ushbu sohada mavjud xodimlarning tayyorgarligining past darajasi;
- er ajratish bilan bog'liq qonunchilikning nomukammalligi turistik va rekreatsion ehtiyojlar uchun uchastkalar ajratishda;
- turizm sanoatining maxsus sektori sifatida agroturizm sohasida qo'llaniladigan standartlar va qoidalarning yo'qligi;
- agriturizm bo'yicha aniq ishlab chiqilgan davlat siyosati va ushbu faoliyat turini me'yoriy qo'llab-quvvatlash tizimining yo'qligi;
- agroturizm sohasida SMM marketing bo'yicha namoyishlar yo'qligi;
- qishloq joylarida internet tarmog'ining tezligi pastligi;

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki yuqorida ko'rsatilgan muammolarni yaxshilash orqali mamlakatimizda agroturizmni yanada rivojlantirish qishloq joylarning ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasini holatini yaxshilash, xususan, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholining madaniy va intellektual saviyasini oshirishga yordam beradi.

## **JAHON MIQYOSIDA TEMATIK PARKLARNING SHAKLLANISHI VA BUXORO HUDUDIDAGI AHAMIYATI**

**Xabib Ziyaviddinov**  
**BuxDU, Servis kafedrası o'qituvchisi.**

Tematik park odatda istalgan vaqt va makon atmosferasini yaratish uchun mo'ljallangan joylardir. Ular odatda do'konlarni, restoranlarni va boshqa ko'ngilochar savdo do'konlarini o'z ichiga oladi. Tematik parklari kattalarga, o'smirlarga va bolalarga birdek manzur keladi.

Tematik parklarga attraksionlar parki yoki boshqa predmetga yo'naltirilgan parklar kiradi. Masalan, Pskov viloyatida Pushkin tog'lari nomidagi Pushkin qo'riqxonasi (Rossiya), ko'ngilochar tematik parklariga klassik misol — Disneylend (hamda Disneyworld, YevroDisney va boshqalar). Undan tashqari delfinariya, okeanarium, zooparklarning turli xillari va boshqa keng omma, turistlar, bolalar va kattalarga atalgan turli xil ko'ngilochar parklar kiradi. Bunday parklardan biri 1955 yilda yaratilgan mashhur Disneylend edi. Shu kabi joylar ochilishi uchun yana o'nlab yillar kerak bo'ldi. Bugungi kunda turli xil parklar mavjud: ertakli, kinematografik, paleontologik va boshqa ko'pgina parklar. Kattalarga ham u yerda kichiklarga qiziqarli bo'lgan kabi, qiziqarli bo'ladi [1].

Hozirgi kunda tematik parklar butun dunyo aholisi uchun ijobiy fikrlar va qiziqarli sarguzashtlarni eslatuvchi parklardir. Fikrimizning dalili sifatida Garri Potter